



Mamlakatimizda aholini manzilli ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ko'makka muhtoj fuqarolarga va yolg'iz keksalarga pul yordami ko'rsatish ko'lmini kengaytirish va samaradorligini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 martdag'i «2003 yilning 1 apreldidan boshlab uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha beriladigan imtiyozlar o'rniiga kompensatsiya pul to'lovlarini joriy etish to'g'risida»gi PF-3227-son [Farmoniga](#) muvofiq imtiyozli toifadagi shaxslar uchun uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha qonunchilik asosida beriladigan imtiyozlar o'rniiga oylik kompensatsiya pul to'lovlarini joriy etilganligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'rsida"gi PF-58-sonli Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra 2022 yil 1 martdan boshlab kompensatsiya to'lovi, uni olish huquqiga ega bo'lgan barcha imtiyozli toifadagi shaxslarga, ushbu shaxslarning pensiya (ijtimoiy nafaqa) olishi yoki olmasligi hamda mehnat faoliyatini olib borishi yoki olib bormasligidan qat'i nazar to'lab boriladi, ijtimoiy nafaqa oluvchi o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz shaxslarga kompensatsiya to'lovi joriy etildi, bunda, ijtimoiy nafaqa oluvchi o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz shaxslarga kompensatsiya to'lovi — pensiyani hisoblashning bazaviy miqdorining 45 foizi miqdorida to'lanadi, yoshi 100 ga to'Igan va undan oshgan ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslar uchun har oyda - pensiyani hisoblashning bazaviy miqdorining 100 foizi miqdorida qo'shimcha to'lov belgilandi. Bunda, 100 yoshga to'Igan va undan oshgan fuqarolar nafaqasiga har oyda to'lanadigan qo'shimcha to'lov pensiya va nafaqa tayinlangan tashkilot orqali respublika byudjeti va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi belgilandi.

Mazkur Farmonlar aholini ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ko'makka muhtoj fuqarolarga va yolg'iz keksalarga pul yordami ko'rsatishga xizmat qiladi.

## **Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Qo'shstepta tumani bo'limi**

### **Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#),

2022-03-01 13:04:39